



## JAMIYATDA OILANING O'RNI

Andijon Davlat pedagogika instituti Milliy g'oya,  
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi:

**Sodiqova Muqaddaxon Abdumalikovna**

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda azal-azaldan bolalarning ruhiy, aqliy va jismoniy tarbiyasiga ahamiyat berilib ularni, komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelingan. Mustaqillik yillarida ham yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom avlodni kamol toptirish maqsadida barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, oila, bola, tarbiya, jismoniy tarbiya.

Bunda o'sib kelayotgan avlod haqida g'amxo'rlik qilish va ular uchun farovon hayotni barpo etishga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlar ustuvorligiga katta ahamiyat berilmoqda.<sup>1</sup> Albatta, millatimiz kelajagi bo'lgan farzandlarimizning ruhiy dunyosi, ularning ma'naviy-ahloqiy, huquqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom va barkamol inson bo'lishi uchun muntazam qayg'urishimiz lozim. Bunday muhim vazifalar, avvalo, jamiyatimizning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan oilada amalga oshirilishi unga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni, oila bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni muntazam tadqiq etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti oila xaqida gapirib, shuni ta'kidlagan edi: «... avvalambor, oila xayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini taominlaydigan, muqaddas urf odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor. SHarqda qadim-qadimda oila muqaddas Vatan sanalgan. Aga oila sog'lom va mustaxkam

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" - Toshkent: "Ma'naviyat", 2018. B. 62



bo'lsa, maxallada tinchlik va va xamjixatlikka erishiladi. Binobarin, maxalla-yurt mustaxkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik xukm suradi. Zero, oila farovonligi – milliy farovonlikning asosidir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli ananalar: xalollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu xayoy, mexr-u oqibat, mexnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan».<sup>2</sup>

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi hamda qonuniylik tamoyillarining so'zsiz ta'minlanishi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolatidir. Biz bu fikrni yanada teran anglab olishimiz kerak. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiya hamda qonun talablariga og'ishmay amal qilish huquqiy saviyamiz, madaniyatimizning asosiy mezoniga aylanishi shart.

Davlat va jamiyatning huquqiy rivojlanganligini belgilaydigan bir qator muhim omillar bor, biz buning bir necha jihatlarini sanab o'tamiz:

**Birinchidan**, rivojlangan jamiyat a'zolarining, davlat fuqarolarining ijtimoiysiyosiy faolligi yuksak bo'lishi kerak;

**Ikkinchidan**, huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi baland bo'lishi lozim;

**Uchinchidan**, ularning o'sha jamiyatdagi islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usi bor bo'lishligi talab etiladi.

Bugungi kunda huquqiy madaniyat masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda bu sohaga ulkan va uzluksiz e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada yurtimizda ko'plab amaliy ishlar qilingani jamoatchilikka yaxshi ma'lum.

Hozirgi davrda chet el va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari tadqiqotchilari orasida «huquqiy madaniyat» kategoriyasi va tuzilmaviy unsurlarining mazmuni, funktsiyalari to'g'risida xilma-xil fikrlar, ta'riflar mavjud. Bizga ma'lumki, har

<sup>2</sup> Oila yili. //Dastur//, - Toshkent: «O'zbekiston», 1998. B.9-10



bir falsafiy tushunchaga ta'rif berish uchun uni bir xil tipdagi tushunchalar bilan taqqoslash lozimdir. Huquqiy madaniyatni ijtimoiy ong shakllari bilan aynanlashtirish mumkin emas. Chunki birinchidan, ijtimoiy ong madaniyatning faqat gnoseologik aspektidir. Ikkinchidan, ijtimoiy ong madaniyat rivojlani-shining mahsuli bo'lib, u o'z ichiga ijtimoiy ongni ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish kabi jihatlarni oladi. Uchinchidan, huquqiy madaniyatning tarqalishi barcha ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bog'liqdir. Bu esa madaniyatni onging chegarasidan chiqib talqin qilishga undaydi. To'rtinchidan, ijtimoiy ong barcha g'oyalar, qarashlar, tasavvurlarni, xuddi huquqiy madaniyat kabi, o'z ichiga olsa-da, bu g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar shu zamongagina taalluqli bo'ladi. Huquqiy madaniyat esa butun insoniyat tarixi davomida yaratilgan barcha g'oyaviy qadriyatlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Prezidentining 2019 yil 9 yanvarda "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidag"gi Farmoni qabul qilindi.<sup>3</sup> Farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "Shaxs-oila-mahalla-ta'lim muassasasi-tashkilot –jamiyat" printsipi bo'yicha tizimli va o'zviy tashkil etilishi bayon etilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" - Toshkent: "Ma'naviyat", 2018. B. 62
2. Oila yili. //Dastur//, - Toshkent: «O'zbekiston», 1998. B.9-10

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidag"gi Farmoni "Xalq so'zi", 2019 yil 10 yanvar